

BOLALARDA NEYROINFEKTSIYADAN KEYIN KELIB CHIQADIGAN NOGIRONLIKNING TIBBIY JIHATLARINI TAHLIL QILISH

Rizayev J. A., Ergasheva M. Ya.

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Bolalar nogironligi asosan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlar, fan va texnika yutuqlari bilan oldindan belgilanadi. Bolalar salomatligini muhofaza qilish bo'yicha davlat tizimlarining faoliyati, shuningdek, bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan tibbiy xizmat va sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar, tibbiy yordam ko'rsatishda xususiylashtirilgan tibbiyotni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Sog'liqni saqlash tizimida nogiron bolalarga g'amxo'rlik qilish, shuningdek, bolalar nogironligining oldini olishga qaratilgan profilaktika choralari muhim o'rinni egallaydi.

Bolalar populyatsiyasidagi nogironlik tarkibida ruhiy kasalliklar, markaziy va periferik asab tizimining patologiyasi, tug'ma nuqsonlar etakchi o'rinni egallaydi, bu bolalar nogironligini keltirib chiqaradigan barcha patologik holatlarning 2/3 qismini tashkil qiladi.

Neyroinfektsiyalar bolalarning yuqumli kasalliklari orasida muhim ahamiyatga ega. Neyroinfektsiyalarning qoldiq davrida bolalarning yarmida doimiy organik alomatlar bilan nogironlik rivojlanadi. Neyroinfektsiyalarning qoldiq davrida bola yoshiga bog'liq bosh miya rivojlanishiga ontogenetik bosqichlari kechikishi kuzatilganda aniqlanishi mumkin.

Ko'pchilik tadqiqotchilar neyroinfektsiyalarning og'ir oqibatlar mavjudligi sababli reabilitatsiyaga bo'lgan talabni va kasallikning o'tkir davrida reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish muhimligini ta'kidlaydilar, chunki bu tadbirlarni erta boshlash reabilitatsiya samaradorligini belgilab, asoratlarning oldini olishga va nogironlikning kamayishiga olib keladi.

Tadqiqot maqsadi: bolalarda neyroinfektsiyadan keyin kelib chiqadigan nogironlikning tibbiy jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot muhokamasi: Neyroinfektsiyalar oqibatini o'rganishda mualliflar vaksinalarning roli, premorbid fon, kasalxonaga yotqizish muddatlari, antimikrobiyal terapiyani boshlash va tanlash vaqti, glyukokortikoidlar, ovqatlanish holati va suvsizlanish muammolariga e'tibor berishadi [Brouwer MC 2015, Zalmanovici Trestioreanu A 2013]. Afsuski, neyroinfektsiyalar oqibatini davolashda reabilitatsiyaning asab tizimiga ta'siri deyarli muhokama qilinmaydi. Neyroinfektsiyalarga chalingan bolalarni reabilitatsiya qilish va va bunday bolalarni olib borish turli omillarga bog'liq. Neyroinfektsiyalarga chalingan bolalar quyidagi qoldiq o'zgarishlar kuzatiladi: kognitiv buzilishlar, turli vegetativ buzilishlar, diqqat etishmasligining giperaktiv turdagi buzilishi, markaziy yoki periferik parezlar, koordinatsiya va nutqning buzilishi, epilepsiyaning turli shakllari va boshqalar [Karas A. Yu. et al. 2012]. Meningokokk meningiti bilan kasallanish holatining 868 ta ko'rinishini meta-tahlil qilishda [Sadarangani M et al. 2015], ularning 18 foizida eshitish qobiliyatini yo'qotish (5,4%), ruhiy buzilishlar (5,4%), ayrim hollarda buyrak usti bezi va buyrak funksiyasining buzilishi (2,6%) tutilib gapirish (2,5%). seroz meningit bilan kasallangan bolalarda Reabilitatsiya davrida serebrosteniya (4085% hollarda) va "ishchi xotira" ning pasayishi (24%) qayd etilgan. 20-40% hollarda muammolar olti oygacha davom etadi. Ayrim hollarda neyroinfektsiyalardan so'ng gipertenziv sindrom (13%), diensefalik ko'rinishlar (16%) va fokal simptomlar (10%) ham kuzatiladi. Kasallikdan bir yil o'tgach, asteno-nevrotik (35%) va gipertonik (19%) sindromlar, simptomatik epilepsiya (3%) davom etishi mumkin [Karas A. Yu. et al. 2012]. Yuqumli ensefalitdan keyin bosh miyada sezilarli funktsional pasayish yuz berishi mumkin [Samoilova I. G. 2019]. Ensefalit bilan og'rigan bemorlarning deyarli 80% izida neyropsikologik oqibatlar kuzatiladi. Diqqat va xulq-atvorning buzilishi, emotsional buzilishlar kasallikning o'tkir bosqichi tugaganidan keyin uch yil davomida shakllanadi [Pillai SC et al. 2016].

Xulosa. Erta bolalik davrida immuniteti to'liq shakllanmagan bolalarda neyroinfektsiyalarga chalinish xavfi yuqori bo'lib, bu holat ularda og'ir asoratlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Меркушкина, Т. А., Саипов, Ф. С., Бабаходжаев, С. Н., & Халилова, З. Т. (2017).

- Ретроспективный анализ особенностей клинического течения малярии вызванной *Plasmodium vivax* у детей. Журнал теоретической и клинической медицины, (3), 107-110.
2. Касымов, И., Г. Шарапова, and Ш. Рахматуллаева. "Особенности проявлений эпидемического процесса сальмонеллеза." Журнал проблемы биологии и медицины 3 (79) (2014): 31-32.